

ZAMONAVIY TABIATSHUNOSLIKNI RIVOJLANTIRISHIDA TAJRIBALAR TADQIQI

Pazliddinova Odinaxon Jaloliddin qizi

Namangan Davlat Universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi

Metodikasi Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi magistri

ANNOTATSIYA

Maqolada tabiatshunoslikning bugungi kunda rivojlanishida tajribalarni tadqiq qilgan holda qolaversa buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan buyuk me`roslarini o`rgangan holda insonlarining tabiatni rivojlanirish bo`yicha ayrim tavsiyalar haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: Ma`naviyat, tariqat, ma`naviybarkamollik, vatanparvarlik, tarbiya

ABSTRACT

The article deals with some recommendations for the development of professional spirituality of peoples by studying foreign experiences, as well as the great legacy of our great ancestors.

Keywords: Spirituality, teachings, spiritual perfection, patriotism, education

АННОТАЦИЯ

В статье даются рекомендации по развитию профессиональной духовности людей на основе изучения зарубежного опыта, а также великого наследия наших великих предков.

Ключевые слова: духовность, учение, духовное совершенствование, патриотизм, воспитание.

Tabiatshunoslik – tabiatni kelib chiqishi, mohiyati, hususiyatlari, jamiyat rivojidagi o`rni, taraqqiyot qonuniyatlarini o`rganuvchi va haqiqatligi amalda isbotlangan bilimlar majmuidan iborat fan.

Tabiatshunoslik tushunchasi keng tushuncha bo`lib, u ma`rifat, madaniyat tushunchalarini ham o`z ichiga qamrab oladi. Ma`rifat tushunchasi – arabcha”arafa” bilish, bilim, ma’lumot, tanish , tanishish ma’nolarini bildiradi. Kishilarning bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim tarbiyadir.

Kishilarni ma`rifatli va ularni ma`naviy barkamol qilib tarbiyalashda ilohiyotning ta’siri beqiyos bo’lgan. Buyuk ajdodlarimizdan ImomBuxoriy, Xakim Termiziy, AxmadYassaviy, Baxouddin Naqshband, Moturudiy kabi allomalar o’zlarining beqiyos bilimlari bilan umuminsoniy madaniyatlarning rivojlanishiga ulkan hissa qo’shib kelganlar. Xakim Termiziy “Kitob bayan-al ilm” nomli risolasida ma’rifatni nur, yorug’likga

qiyoslagan. Arab, xususan Markaziy Osiyodagi ilohiyot fanida “ma’rifat”, “ilm”, “amal”, “odob” tushunchalari o’zaro bog’liq tushunchalar hisoblangan.

Keng ma’noda tabiatshunoslik insoniyatning butun tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar yig‘indisidir.

Tor ma’noda tabiat tushunchasi jamiyatning ma’naviy hayotini ko’rsatish uchun qo’llaniladi. Tabiatshunoslik atamasi keng ma’noda qo’llanilib, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy hayotida qo’lga kiritilgan yutuqlar majmuini, biror ijtimoiy guruh yoki xalqning ma’lum davrda qo’lga kiritgan shunday yutuqlari darajasini, o’qimishlilik, ta’lim-tarbiya ko’rganlik, ziyolilik va ma’rifatlilikni hamda turmushning ma’rifatlik ishi extiyojlariga mos keladigan sharoitlari majmuini bildiradi.

Har qanday jamiyatning o’ziga xos ma’naviy ehtiyojlari mavjud. Ular orasida bilimga bo’lgan ehtiyoj yetakchi o’rinni egallaydi. Bilim kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilingan to’g’ri ma’lumotlari, ko’nikmasi insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni bajarish va boshqarish jarayonlarining zamonaviylashuvидir.

Bilim olish – milliy guruxni shakllantirish yo’nalishlaridan biridir. Komil inson, uning olgan bilimi hayot yo’larida tayanch, yolg’izdamlarida yo’ldosh, baxtiyor daqiqalarida rahnamo, qayg’uli damlarida madadkor bo’ladi. Bilim insonni aql-idrokli, bilimdon, hunarmand, irodali, e’tiqodli qiladi.

Komil insonni tarbiyalashning birdan-bir yo’li ana shu bilimda. Qur’oni Karimda “ilm” so’zi “alima” bilmoq fe’li negiziga tayangan kalimalar 750 marotaba uchrashi ilmiy tadqiqotlarda aytilgan.

Hadisi sharifda: “ Kimki dunyoni xoxlasa, ilm olish, kimki oxiratni xoxlasa , ilm olish” deyiladi. Aslida, hadislar o’z mohiyatiga ko’ra Qur’ondan keyingi ikkinchi o’rinda turadigan man’ba, eng mo’tabar va bebaho hikmatlar majmuidir. Dinning asosini imon, e’tiqod tashkil etadi. Hadislarda dinning ofati uchta deb ko’rsatiladi:

- 1) Beamal olish;
- 2) Zolim hokim
- 3) Bilmasdan fatvo aytuvchi ulamo.

Ilm olijanob va savob ish. Hattoki ilm olish ibodat, taqvodan afzal. Chunki ilm dinning asosini, ustunini tashkil etadi. Ilm hikmat, ilm fazilat, ilm dinning rivojini, uning tarqalishini ta’minlaydi. Ilmni o’qish, takrorlash, yozish bilan mustahkamlash, chuqurlashtirish lozim. Ilm yangilanib turmasa, foydasiz. Ilmni yangilash, eng avvalo, uni quruq yodlash, takrorlash bilan emas.

Sadoqat va e’tiqot qilishni taqozo etadi. Ilm hikmat kishini turli nopol ishlardan asraydi. «bir soat ilm o’rganish kechasi namoz o’qib chiqqandan afzaldir. Bir kun ilm o’rganish bir oy ro’za tutgandan yaxshidir» deyiladi. «ilm ikki xildir, biri qalbda

bo'ladi uni ilmi foydali deyiladi, ikkinchisi tilde bo'ladi- u odam bolasiga ollox tomonidan yuborilgan hujjatdir».

Ilmlı inson saodatli bo'lishi, kishilarga yaxshilikni o'gatishi kerak. Ilm bilimli, saodatli inson uchun fazilat bo'lsa, bu hislatni boshqalarga singdirishi zarur. Hadislarda ilmlı kishi mevali daraxtga o'xshatiladi. Ilm bu ma'rifat, fazilat. Ilmsiz mamlakatda fitnalar kuchayadi, qotillik avj oladi. Islomda ilm fanni egallash ,ma'rifatli bo'lish juda savob ish ekani qayta –qayta ta'kidlanadi. Beshikdan to qabrgacha ilm izlash lozimligi qayd qilinishining o'zi katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Hadislarda "sadaqaning avzali mo'min kishi ilm o'rganib so'ng boshqa mo'minlarga ham o'rgatishidir" deyiladi. Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Abu Nasr Farobi, Al-Beruniy, Ibn –Sino, Al-Buxoriy, At Termiziy, Abu Vazid Tayfur, Imom Fazzoliy, MaxmudQoshg'ariy, Yusuf XosHojib, Ahmad Yassaviy, YusuvHamadoniy, XojiAbduxoliqG'ijdivoniy, Bahouddin Naqshband, MirzoUlug'bek, Ali Qushchi, Bobir Mirzo, Alisher Navoiy, Bexbudiy, Munavvar Qori kabi ulug' zotlar hayot tarzi, ilm uchun fidoyiligi, e'tiqodning pokligi bilan barchaga ibrat bo'lganligini bilib oilish mumkin. Insonni faqat adiba deb qaramaslik kerak, balki u avvalo ma'rifat, ilm hamdir. Islom tarixi shundan dalolat beradiki, Muxammad Payg'ambarimizgacha bo'lgan arablarda "joxiliya" davri deb atalgan. Farobiyning ta'kidlashicha,"joxiliya" nodonlik davri bo'lib, islom ana shu nodonlik davri o'rniga keng ma'noda ma'rifat, madaniyat vujudga keldi, ilm-fan, falsafa va san'atni rivojlantirdi, o'ziga xos ma'rifat va ma'naviyatni yaratdi.

Mustaqillik tufayli farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda, Imom Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziy o'gitlari, Yassaviy hikmatlari, Imom Fazzoliyning din va dunyo haqidagi qarashlari, Yusuf Hamadoniy tasavvufi, Imom Moturudiyning hidoyat kalomi, G'ijdivoniyning ta'lim tarbiyaga oid o'gitlari asosida tarbiya qilish imkoniga ega bo'ldik.

Bilimdonlik- ma'naviy barkamollikga erishishning muhim shartlaridan biri. Bilim kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilingan to'g'ri ma'lumotlari, ko'nikma insonning ilgarigi tajribalari, malaka muayyan yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati va boshqarish jarayonlarining zamonaviylashuvidir.

Yillar o'tishi bilan ishlab chiqarish, fan va texnika rivojlanib, ijtimoiy mehnat taqsimoti yanada chuqurlashdi. Bu jarayonning uzluksiz davom etishi esa, o'z navbatida, har bir muayyan ijtimoiy funksiyani bajaradigan yangidan yangi faoliyat sohalari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ularning sohiblari esa shunga ko'ra muayyan ijtimoiy burchlarni bajara boshlaganlar. Mazkur burch va majburiyatlar muayyan axloqiy qoidalar va xulq-atvor normalarida o'z aksini topdi. Zamonaviy tabiatshunoslik to'g'risida har xil munosabatlar hosil bo'lishining asosiy sabablaridan biri bu maktab, kollej va litsey o'quvchilarida kasb tanlash jarayonida turli xil motivlarning namoyon bo'lishidir. Motivlar o'rtasidagi kurashularning u yoki bu

qarorga kelishlariga sabab bo‘ladi. Bizningcha, voqelikka ongli munosabatda bo‘lish obyektiv va qat’iy qarorni keltirib chiqaradi.

Kasb-kor (hunar) oldiga qo‘yiladigan talablarni asoslash va ularni bayon qilish o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, umumiy hamda xususiy ko‘rinishlarni o‘zida aks ettiradi.

Fanning maqsadi – o‘quvchilarga fan sohasidagi psixologik tushunchalar, kasblar haqida tushuncha, tasavvurlar zaxirasini shakllantirish, shuningdek, shaxsning hissiy va irodaviy sohasi, kasbiy etika va kommunikatsiyaning shaxsning shakllanishiga ta’siri, kasbga yo‘naltirish yuzasidan nazariy, amaliy ma’lumotlar manbaini berish. Fanning vazifalari: – o‘quvchilarni ilmiy ma’lumotlar bilan tanishtirish: – kasb tanlash va shaxs xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslash; – kasblar psixodiagnostikasi haqida tushuncha berish; – shaxs psixikasining rivojlanish bosqichlarida kasbiy rivojlanish masalalari.

Kasb etikasi va kommunikatsiya fani, amaliyotning turli sohalari bilan bog‘langan, g‘oyat tarmoqlanib ketgan fanlar tizimidan iborat. Konkret faoliyatning psixologik tomoni bo‘yicha kasb etikasi va kommunikatsiya fanining bir qator fanlar bilan uzviy aloqador.

Ma’naviy sohadagi chuqurlashib borayotgan inqiroz butun insoniyat uchun global muammoga aylanmoqda. Ijtimoiy tizimidan qat’i nazar, barcha mamlakatlarda alkogolizm, giyohvandlik, jinoyatchilik, ma’naviy va axloqiy tanazzul kabi hodisalar o’sib bormoqda. Moddiy boylik muammolarning echimini ta’minlamaydi va ildizlari yetarlicha chuqur bo’lgan inqirozni bartaraf etmaydi. Manbasi tashqi dunyo bo’lgan moddiy ne’matlarni iste’mol qilishga yo’naltirilgan zamonaviy sivilizatsiyaning pragmatik tarafkashligi odamni o’z ichki dunyosi va ma’naviy ehtiyojlaridan uzoqlashishga olib keldi. Iste’molga haddan tashqari katta e’tibor shaxsni yo’q qiladi, yigit o‘ziga xos “iqtisodiy hayvon” ga aylanadi, u uchun ideal yoki xatti-harakatlar normalari yo’q. A. Klizovskiy ta’kidlaganidek: “Hayotni rivojlantirish, rujni tarbiyalashning asosiy omili insoniyat tarbiyasidan chetlashtirildi. Inson ilgari misli ko’rilmagan inqirozni aynan uning ma’naviy rivojlanishining to’xtatilishi, ma’naviy qadriyatlarini yo’qotishi sababli kechirmoqda. Iqtisodiy qashshoqlashish ma’naviy qashshoqlikning natijasidir. Najot inson yolg’iz non bilan emas, balki bizning mavjudligimiz asosini tashkil etadigan eng yuksak ma’naviy qadriyatlar bilan yashashini e’tirof etishdan iboratdir”. Ushbu inqirozning oqibatlari yosh avlodda ko’proq seziladi. Oilaviy va maktab hayotidan, ijtimoiy va ma’naviy tarbiyaning uyushgan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan shakllaridan begona bo’lgan yoshlar jinoi muhitni to’ldirishning asosiy manbalaridan biriga aylandilar.

Binobarin, zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi inqiroz davrida, ma’naviy qadriyatlarning qadrsizlanish tendentsiyasi yaqqol namoyon bo’lganda, bu muammoni

hal qilishning asosiy vositalaridan biri yoshlarda ma'naviyatni rivojlantira oladigan o'qituvchini tayyorlashdir.

Darhaqiqat, yoshlarning ilm dargohlarida o'z madaniyati, aql-zakovati, yurish-turishi, qanday xislatatlarga ega ekanligi oilada olgan tarbiyasining ifodasidir. Iqtisodiyot, fan va texnika taraqqiyotida ma'naviy-axloqiy omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Inson dunyoning butun sir-asrorlarini bilishga qodir bo'lmasada, Haq yo'lida haqiqatni kashf etib yashashga qodir. Shaxsni o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi. O'z vijdoni, oilasi va jamoasi oldida hamisha ochiq yuz bilan hisob bera oladi. Ma'naviy-axloqiy va ruhiy poklik shaxsning tarbiyalanganlik darajasini belgilovchi asosiy mezon vazifasini o'taydi. Shaxslararo munosabatdagi andishasizlik, dag'allik, qo'pollik, bir-birini ko'ra olmaslik, savodsizlik, kibr, baxillik, ichi qoralik, ziqnalik, yolg'onchilik, ig'vo, adovat, g'iybat, manmanlik va hasad kechirib bo'lmaydigan umuminsoniy illat hisoblanib, uni bir gap bilan, ma'naviy-axloqiy nopollik, deb yuritish mumkin. Milliy qadriyatlarimiz ulug'vorligining o'ziga xos belgisi sifatida ma'naviy- axloqiy yetuklikka ko'plab misollar keltirish mumkin. Birgina mutasavvuf donishmand, yurtparvar shoir Hoja Ahmad Yassaviy Markaziy Osiyoda ilk tasavvufiy tariqat - «Yassaviya»ning asoschisi, nafaqat Xuroson va Movarounnahr, balki turkiyzabon xalqlarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari rivojiga ulkan hissa qo'shgan yetuk inson sifatida tanilgan.

Ozodlik va yurtparvarlik yo'lida fidoyilik namunasini ko'rsata olgan, nafaqat o'z xalqining, balki umuminsoniy va umumbashariy qadriyatlarni e'zozlagan buyuk vatandoshlarimiz, o'zbek farzandlari – Shiroq, To'maris, Mahmud Torobi, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmuddin Kubro, Dukchi Eshon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lpox, Usmon Nosirlarning mustaqillik, erk va erkinlik, ma'rifat yo'lidagi ulkan jasoratlari, milliy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarmizning oliy namunasidir.

Odamlarni kasbiy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishning ma'naviy – axloqiy asoslari ana shu safarbarlikda, o'zini bag'ishlay olishda, o'z tashvishi bilan emas, o'zgalar dardi, xalq va Vatan dardi bilan yonib yashashida. Pedagog faoliyati uning faol harakati, tashkilotchiligi bilan cheklanishi mutlaqo mumkin emas. Pedagogning kasbiy tarbiyaviy faoliyatiga xos fidoyilik, ya'ni o'z bilimi va tajribasini yoshlarning farovon hayot yo'lini belgilab berishga yo'naltira olsa, alloma G'azzoliy tabiri bilan aytganda, haqiqiy ustozlik maqomiga ega bo'ladi. Ustoz – murabbiy chinakam donishmand darajasidagi inson hisoblanadi. Demak, har qanday ilmli, bilimli, tajribali odam ham donishmand bo'la olmas ekan. Ta'kidlash joizki, qadim-qadimlardan mo'tabar zaminimizda yashab kelgan alloma va mutafakkir ajdodlarimiz ham barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi ma'naviy- axloqiy qarashlari jamiyat

ma'naviy hayotini rivojlantirishda, shuningdek, rahbar kadrlar va yosh avlodni axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi.

Ma'lumki, inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalarning mehr va ardog'iga, ko'magiga muhto jbo'ladi. Farobiyning ta'kidlashicha: "Inson fazilatlar bilan kamolotga yetadi va kamolotga yetgan odam baxtli hisoblanadi". Shuningdek, alloma aqlni ma'naviy-axloqiy kamolotga erishishning eng asosiy vositasi deb aytadi. "Har bir inson boshidan komil emas, ammo tug'ma ravishda o'ziga xos bo'lgan ichki shuuri ila bosqichma-bosqich komillikka jiddu-jahd bilan intiladi. Ma'lumki, vatanparvarlik har bir davla thayotining ma'navi yasosi xisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Unib-o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida mustahkam hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish maqsadida vatanparvarlik tarbiyasi sohasida mohiyat e'tiboriga ko'ra noyob tizim yaratilib, hozirgi kunda uning doirasiga mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari qamrab olinmoqda. Buyuk bobokalonimiz, mutafakkir olim Abu Nasr Farobiyning quyidagi so'zlari buning dalilidir. Barkamollikka erishishning eng muhim vositalari ta'lim va tarbiyadir. Ta'lim – nazariy ximmat ezgulikka o'rgatsa, tarbiya – ezgu axloqiy sifatlarga o'rgatadi. Oliy axloqiy fazilatlar inson xatti-harakatida namoyon bo'luvchi bilimdonlik, donolik va ko'pchilik maqsadlarni o'z shaxsiy maqsadlaridan yuqori qo'yish, haqiqatga, muhabbatga, yuksaklikka intilish, adolatni sevishdir. Aqllikishi deb shunday kishiga aytildiği, unda o'tkir zehn-idrok bo'lish ibilan birga, fazilati ham bo'lsin. Aqli deb shunday kishilarg aaytiladiki, ular fazilatli, o'tkir muloxazali, foydali ishlarga berilgan, zaruriy narsalarni kashf etishda zo'r iste'dodga egalar, deb hisoblaydi.

Ma'naviy barkamollik deganda, birinchi navbatda, insonning tafakkurlash madaniyat iaqlu-zakovat inazarda tutiladi. Ma'naviy barkamollik o'z ichiga aqliy salohiyatni iqamrab oladi. Insonga xos fikr yuritish tarzi aqlu-zakovat, intellek ttushunchasida o'z ifodasini topadi. Intellektual inson – ma'naviy ehtiyojlar bilan yashovchi, aqliy kamolotga yetgan inson. Shu bois yoshlarni intellektual salohiyatini rivojlantirish talab etiladi. Intellekt, intellektuallik shaxs faoliyatida namoyon bo'ladi. Shaxs faoliyatining asosida ehtiyoj va manfaatlar yotadi. Ma'naviy ehtiyoj shaxs ma'naviy qiyofasi, uning intellektual qobiliyatlarining shakllanishi va taraqqiyotining muhim omilidir. Intellektuallik shaxs qobiliyatlarida namoyon bo'ladi. Ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tomoni – insonning intellektual qobiliyatlarini takomillashtirishdan iborat. Shuning uchun ham mamlakatimizda ta'lim-tarbiyani zamon talablari darajasiga ko'tarish siyosatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. «Aqliy zakovat va ruxiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotidir». Ma'rifatli inson, barkamol avlod tarbiyasi buyuk kelajagimiz kafolatidir. Ko'p jihatdan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi mamlakatimizda shaxs intellektual

salohiyatini yuksaltirishga bog'liq. Shuning uchun ham barkamol avlodni voyaga yetkazish, iste'dodli va salohiyatli yoshlarni aniqlash, ularni har tomonlana qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Yoshlar o'rtaida shiddat bilan o'sib borayotgan aqliy, intellektual salohiyat va raqoba tularning bilim darajasini belgilab beradi.

Kasbiy etika quyidagi xususiyatla rbilan tavsiflanadi:

- Kundalik kasb vakillariga qaratilgan talablar shaklida ifodalanadi. Shunday qilib, chiroyli tarzda tuzilgan kod-deklaratsiyalar shaklida mustahkamlangan uning me'yoriy qiyofasi kuzatiladi. Qoida tariqasida, ular kasbning yuqori kasbiga mos keladigan qo'ng'iroqni o'z ichiga olgan kichik hujjatlar;
- Kasbiy etika to'g'risidag ihujjatlar, bu qadriyatlar aniq ekanligi va ushbu faoliyatning eng ko'zga ko'ringan vakillari faoliyatini oddiy tahlil qilishdan kelib chiqadi, degan ishonch bilan to'ldiriladi;
- Axloqiy obro'ni professional hamjamiyatning o'zi deb hisoblaydi va bunday yuksak ishonchga ega bo'lgan eng hurmatli vakillar uning nomidan harakat qilishlari mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tergov ham, sanktsiyalar ham jamiyatning o'ziga tegishli masala ekanligi ayon bo'ladi. Uning sud va hukmi - bu professional kollejning o'z yuqori taqdirini noto'g'ri tushungan, o'z mavqein ijamiyatga zarar yetkazgan va shu bilan o'zlarini undan o'chirib tashlaganlarga qarshi chiqargan qarori.

Demak, shaxda kasbiy-ma'naviyfazilatlarni tarbiyalashning bosh maqsadi – uning kundalik hayotda, kasbiy faoliyatida, shaxslararo munosabatlarida va kasbiy muloqotlarida namoyon bo'luvchi yuksak ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishdan iboratdir. Shuningdek, oily ta'lim tizimining pedagogic yo'nalishidagi malaka talablarini to'la qonli bajarilishini qamrab olinganligi, o'quv dasturlari dars va darsdan tashqari faoliyatga qo'yilgan talablarga mos ravishda tashkil etish, belgilangan ko'rsatkichlarga erishish, Odamlarning kasbiy ma'naviy faoliyatga tayyorgarligini talab darajasiga yetkazadi.

Aksiologik yondashuv asosida Odamlarning ma'naviyat sohasida yuqor ikasbiy natijalarga erishishi kasbiy motivatsiyani kuchaytirish, kasbiy qobiliyatni rivojlantirish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, ijodiy potentsialni rag'batlantirish, kasbiy aksiologik yo'nalganlikka, faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash va unumli foydalanishga intilish bilan belgilanadi.

Insoniylikning eng muhim shartlaridan biri bu- ma'naviy va ma'rifiy bilim olish, hamda kasb-hunar egallash bo'lib, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash, voyaga yetkazish. Zero hozirgi vaqtida Respublikamiz yoshlari ta'lim-tarbytasiga nechog'lik ahamiyat berayotganliklarining boisi ham shunda ko'rindi. Umuman ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning asosiy belgilaridan biri – savodxonlik ham ilm bo'lib, bular ma'naviy boyligimizning poydevori hisoblanadi. Hozirgi paytda O'zbekiston axolisining 99,06 foizi savodli. Kishilarga bilim berish jarayonining kechish

qonuniyatlarin ianiqlab beruvchi inson faoliyati turiga ma'naviyat ilmi (didaktika) deyiladi.

Ma'naviyat ilmi aniqlagan qonuniyatlar asosida ta'lim tarbiyani amalga oshirish va uslublarini yaratuvch iilm-fan turiga uslubiyat (metodika) deyiladi. Ma'rifat ahl ianiqlagan qonuniyatlar va shu qonuniyatlar asosida yaratilgan ta'lim hamda tarbiya berish usullarini ma'rifiy jarayonda qo'llash ma'rifat ilmi (pedagogika) deyiladi. Bilim olish va uning avzalliklari haqida sharqda qadim-qadimdan fikrla rbildirilib kelingan. Har bir davrda bu fikrlar yangi-yangi qarash va g'oyalar bilan boyitib kelinmoqda. Chunki bilim ham falsafaning asosiy muammolaridan biri sanaladi. Zero bilim olish va o'z navbatida kasb egallash shaxs ma'naviyatini yuksaltiradi, jamiyatdagi o'rnini topishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiyishlarsamaradorliginioshirishbo'yichaqo'shimchachora-tadbirlarto'g'risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-sonli Konseptsiysi.

3.

Oliyta'limmuassasalaridatarbiyaviyishlartiziminitakomillashtirishvauninguslubiya'm inotinikengaytirishborasidagitaklifvatavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar M ahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi "Uzluksizma'naviytarbiyakontseptsiysi"ni, O'zbekistontaraqqiyotiningyangibosqichida Milliyg'oyanirivojlantirishkontseptsiyasi vayo'lxaritasiniishlabchiqish

4. Mirziyoyev Sh.M.

Xalqimizning groziligidizningfaoliyatimiz gaberilgan engoliy bahodir. 2-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. -B.421

5. Abu Nasr Farobi. Fozilodamlarshahri. // Farobiyhikmatlari. - Toshkent: AbdullaQodiriy. 1993. b.182

6. O'zbektiliningizohlilug'ati. 2. -Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2006. B. 216.

7. Islom ma'rifativahozirgizammon. Xalqarokonferentsiyamateriallarito'plami. "Toshkent islomuniversiteti" Toshkent. 2017. B - 88.